

FYODOR DOSTOYEVSKIYNING “TELBA” ASARIDA KNYAZ MISHKIN OBRAZI TAHLILI

Nabijonova Madinabonu Sardorbek qizi

@nabijonovamadina1106@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi rus adibi Fyodor Mihaylovich Dostoyevskiyning “Telba” romanida bosh qahramon Knyaz Lev Nikolayevich Mishkin obrazining badiiy talqini va psixologik xarakteri tahlil qilingan. Shuningdek, asarda Knyazning “Ezgulik timsoli” sifatidagi mavqei va uning jamiyatdagi o'рни, insonlar bilan munosabati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *roman, obraz, harakter, portret, badiiy g'oya.*

“Dunyoni ezgulik qutqaradi” degan goya bilan yashovchi, yomonliklar, fitna va tuhmatlarga faqat va faqat ezgulik bilan javob qaytaruvchi insonni nima deb atash mumkin? Shunday inson mavjudmi? Agar bor bo'lsa u kim? – Telba!

Fyodor Dostoyevskiy — rus adabiyotining eng chuqur falsafiy yo'nalishdagi yozuvchilaridan biridir. Uning ijodi inson ruhiyati, axloq, ezgulik va yovuzlik masalalarini teran tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Yozuvchining “Telba” (“Идиот”) romani bu jihatdan eng muhim asarlaridan biri bo'lib, unda “agar dunyoga butunlay pok, mehribon va halol inson kelsa, jamiyat uni qanday qabul qiladi?” degan falsafiy savol ilgari suriladi. Asar yozilganiga bir asrdan oshgan bo'lishiga qaramasdan undagi g'oya hali hamon barchamizni hayot haqida fikr yuritishga, insonlarning ruhiy holatlarini doimiy ravishda tahlil qilishga undab kelmoqda. Dostoyevskiyning “Telba” asari tugamaydi aksincha tugashi bilan boshlanadi.

Knyaz Lev Nikolayevich Mishkin - vijdon ramzi, Dostoyevskiyning ideal qahramoni, haqiqiy pokdil va beg'araz yigit. Asarda u uzoq yillar davomida ruhiy kasallikdan aziyat chekkan, ammo qalban boladek beg'ubor, pok, mehribon va samimiy inson sifatida tasvirlanadi. Mishkinning insoniy fazilatlarini — pokdamonligi, halolligi, rahm-shafqati va soddaligi — uni boshqa qahramonlardan tubdan farqlab turadi. Mishkin jamiyatga qaytgach, u yerda moddiy manfaat, ikkiyuzlamachilik va riyo ustun ekanini ko'radi. Uni o'rab olgan jamiyat allaqachon sof tuyg'ulardan, go'zal ahloqdan, muhabbatdan voz kechgan, bunday hislar insonlar orasida o'z qiymatini yo'qotgan edi. Barcha uchun obro'-e'tibor, shon-shuhrat muhim, mansabparastlik, adovat, xasad, nafrat kabi tuyg'ular qalblarni egallab ulgurgandi. U hammani yaxshi ko'radi, tushunadi, hech kimni yomon ko'rmaydi, nafrat tuyg'usi unga begona, hatto

uni kamsitganlarga ham rahm qiladi. U aslida telba emas aksincha uni telba deganlarning hammasidan ham ko'ra aqlliyoq va barcha insoniy fazilatlariga ega.

Knyaz Mishkinning xatti-harakatlari atrofdagilarni taajubga soladi chunki ushbu davr insonlari uchun bunday insoniy fazilatlariga ega bo'lgan vijdonli kishi haqiqiy "Telba" hisoblanadi. Atrofdagilar undan nafratlanadi chunki ular Knyaz Mishkin bilan bo'lganliklarida o'zlarining qanchalar tuban, vijdonsiz va barcha insoniy fazilatlardan mahrum ekanliklarini his qila boshlaydi va aynan shu holat ularni sarosimaga soladi. Go'yoki jamiyatda halol kishilarning mavjud bo'lishi ular uchun haqiqiy fojea. Asar qahramonlari Knyazning sofdilligini kamchikka yo'yadi, uni mazax qilishadi ba'zan haqoratlashadi va shu bilan birgalikda uni yaxshi ham ko'radilar. Xo'sh jamiyat Dostoyevskiyning ushbu qahramonini qabul qila oladimi? Afsuski yo'q! U bu jamiyat uchun begona.

Mishkin Shveytsariyada davolangan kezlari uning boshqalarga sira o'xshamagan fe'l atvori bolalarning diqqatini tortadi. Tez orada Mishkin ular bilan do'stlashadi, aynan o'sha kezlarda bolalargagina xos bo'lgan beg'uborlik uning ruhini qamrab olgan edi.

"Болага хамма нарсани айтиши мумкин - хамма; катталар болаларни яхши билмаслигидан доим хайрон бўлиб юраман, хатто ота-оналар ўз болаларини билмайдилар. Бола энг мушукул вазиятда хам хаддан зиёд фойдали маслахат бериши мумкинлигини катталар билмайдилар" [1.71].

Mishkinning mehribonligi, o'ziga xos shafqat va e'tibori Mari bilan bo'lgan munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

"Мен уларга йўқ, Марини севмайман, унга оишқ бўлган эмасман, унга фақат юрагим ачийди холос, деб айтолмасдим". [2.76].

Bundan shunisi ma'lumki Mishkin Mariga chin dildan achingan, unga yordam berishni xohlagan, uning ga'm-tashvishlarini oz bo'lsada yengillashtirishga va bechora qizning ayanchli taqdirini ijobiy tarafga o'zgartirishga harakat qilgan. Mishkinning ushbu harakatlari qizga umid bag'ishlagan, ular orasidagi his-tuyg'ular ishqiy munosabat emas, aksincha insoniy mehr-muhabbat va rahmdillikning yaqqol namunasi edi. Yana shunday voqealardan biri asar davomida Nastasya Filippovna bilan sodir bo'ladi. Knyaz uni uchratgan kundan boshlab, unga o'zgacha mehr qo'yadi.

"Князнинг Настасья Филипповна хақидаги фикрлари бир тўхтамга келганди, албатта, энди бу хотиннинг кўп томонлари унга сирли ва англаб булмас туюлмас эди. Лекин Князь унинг яна хаётга қайтадан келишига чин дилдан ишонарди". [3.623].

Mishkinning fojiasi shundaki, u dunyoni o'zgartirishni, uni ezgulik bilan to'ldirishni istaydi, ammo bu niyatini amalga oshira olmaydi. Chunki u yashayotgan jamiyat ma'naviy jihatdan kasal — u yerda rahm-shafqat va mehr emas, balki manfaat

va hiyla ustun. Shu sababli Mishkinning ezgu niyatlari bu dunyoda “telbalik” sifatida ko‘rinadi.

Asar davomida Mishkinning insonparvarlik g‘oyalari eng keskin sinovga duch keladigan obrazlardan biri bu Parfen Rogojindir. Knyaz unga nisbatan hech qachon nafrat hissini tuymaydi, aksincha, unga chin yurakdan ishonch bildiradi. Biroq Rogojinning tabiatida hukmron bo‘lgan rashk, ichki beqarorlik va ruhiy ikkilanish tufayli u Knyazni do‘st sifatida qadrlab, bir vaqtning o‘zida undan qo‘rqadi va hasad qiladi.

“– Ойижон,- деди Рогожин унинг қўлидан утиб куяркан, - бу менинг энг яхши дўстим князь Лев Николаевич Мишкин; биз у билан бутларимизни алмашдик; у Москвада менга акалик қилди, ундан кўп яхшиликлар кўрдим. Ойижон уни худди ўз ўглингиздек дуо қилиб қўйинг. ”.[4.234].

Yozuvchi Pirimqul Qodirov aytganidek, “Telba” romanining millionlab kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilishiga sabab — unda inson qalbidagi hamdardlik tuyg‘usining kuchli ifodalanishidir. Dostoyevskiy odamdagi ezgulikka bo‘lgan intilishni, halol va pok yashash istagini ulug‘laydi va ayni paytda bu qadriyatlarga qarshi turganlarni keskin nafrat bilan fosh etadi.

Xulosa qilib aytganda, Dostoyevskiyning “Telba” romani inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beradi. Knyaz Myshkin obrazi orqali muallif haqiqiy insoniylikning oliy namunasini yaratgan. Muallif uchun kechirimlilik va rahm-shafqat haqiqiy insonning belgisidir.

Asar o‘quvchini insoniy fazilatlar, axloqiy poklik va mehr-shafqat haqida chuqur o‘ylashga undaydi. Dostoyevskiy bu asar orqali “ezgulik ideal bo‘lishi mumkin, ammo real hayotda uni saqlab qolish qanchalik mushkul” degan fikrni ilgari suradi. “Telba” romani faqatgina bir inson taqdiri haqida emas, balki butun insoniyatning axloqiy sinovi haqida hikoya qiladi. U o‘quvchiga har bir insonda yashirin turgan poklikni anglash, kashf etish va uni yo‘qotmaslik zarurligini eslatib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фёдор Достоевский. Телба.-Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.-716
2. Фёдор Достоевский. Телба.-Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.-76 б
3. Фёдор Достоевский. Телба.-Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.-623 б
4. Фёдор Достоевский. Телба.-Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.-234 б